Yuldasheva Nargiza Egamberdiyevna
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali, o‘qituvchi
E-mail: nargizayuldasheva1972@gmail.com

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10287937

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini doimiy o‘zgarib borayotgan sharoitda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda, malaka oshirish tizimida ularning kasbiy kompetentligini o‘ziga xos jihatlari, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, aniqlash metodikasini takomillashtirish mezonlari va shakllanganlik darajalari, texnologiyasi, didaktik asoslarini ishlab chiqish, shakl, metod, vositalari, modeli, o‘qitish sifatining samaradorligini oshirish, shuningdek, malaka oshirish tizimida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy qobiliyat, shaxsiy fazilatlar, subyektiv omillar.

KIRISH

Jahonda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va tashxislash bo‘yicha qator ilmiy natijalarga erishilgan. Jumladan, kompetensiyalarni baholash usullari (The University of Chicago), besh pog‘onali baholashni talab qiluvchi kasbiy kompetentlikning integrativ modeli ishlab chiqilgan (Univers ity of Sheffield). Yevropa ta’limi darajasida umumiy maqsad va birinchi darajali vazifa sifatida kompetentsiyalarni e’tirof etish konseptual jihatdan asoslangan (University of Tours), ta’lim natijalarini yaxshiroq tushunishda uch pog‘onali kompetensiya indikatorlari aniqlangan va tavsiya etilgan (University of Twente), “kasbiy kompetentlik” tushunchasini yoritish maqsadida ikkita asosiy yondashuvlar asoslangan: insonni muayyan faoliyati va shaxsning professional sifatida shakllanishi (MDU, SPBDEU). Ayni vaqtda zamonaviy ta’lim tendensiyalariga muvofiq, integrativ yondashuv asosida jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Malaka oshirish tizimi tinglovchilarini kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish bo‘yicha A.D.Asqarov, U.Sh.Begimqulov, G.T.Boymurodova Sh.S.Boboyorov, R.X.Djurayev, A.YE.Ibraymov, Z.K.Ismailova, U.I.Inoyatov, I.A.Eshmamatov, Sh.Q.Mardonov, N.A.Muslimov, M.T.Mirsoliyeva, B.A.Nazarova, B.S.Nuridinov, Q.T.Olimov, N.B.Odilxo‘jazoda, X.F.Rashidov, O‘.Q.Tolipov, A.A.Xalikov, D.O.Ximmataliyev, J.A.Hamidov, T.T.Shoymardonovlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

O.A.Abdulina, L.G.Aferina, V.P.Bespalko, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, V.A.Kan-Kalik, Z.A.Kargina, N.V.Kuzmina, G.V.Kalkova, A.S.Markova, A.M.Nekrasov, A.I.Noskov, V.A.Slasteninlar bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, kasbiy-pedagogik tayyorlash samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

A.Blum, K.Ghosh, K.Grey, R.Mohanʌap ta’limda ijodkorlik, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish nazariyasi va amaliy yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqot olib borishgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, davlat ta’lim standartlarini xalqaro

tajribaasosida takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni jahon andozalariga javob beradigan raqobatbardosh etib tayyorlanishini ta'minlash, jahon amaliyotigaasoslangan oliy ta'lim tizimining sifat darajasini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimiga pedagogik va innovatsion loyihalarni keng tatbiq etish orqali ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali uslublarini ishlab chiqish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi keng ko'lamli islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan zamonaviy sharoitlarda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini doimiy o'zgarib borayotgan sharoitda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda, malaka oshirish tizimida ularning kasbiy kompetentligini o'ziga xos jihatlari, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, aniqlash metodikasini takomillashtirish mezonlari va shakllanganlik darajalari, texnologiyasi, didaktik asoslarini ishlab chiqish, shakl, metod, vositalari, modeli, o'qitish sifatining samaradorligini oshirish, shuningdek, malaka oshirish tizimida jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassisning kasbiy kompetentligi obyektiv zarur bilim va ko'nikmalarning umumiyyig'indisi kabi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi; o'z vazifalarini bajarishda ularni to'g'ri tasarruf etish ko'nikmasi; muayyan harakatlarning mumkin bo'lgan oqibatlarini bilish; amaliy tajriba; inson mehnatining natijasi; metodning moslashuvchanligi va fikrlashning tanqidiyligi; shuningdek, kasbiy nuqtai nazarlar, individual psixologik fazilatlar vaakmeologik invariantlar. Pedagogika fanida «kasbiy kompetensiya» tushunchasi mehnat samaradorligini belgilaydigan bilim va ko'nikmalarning yig'indisi sifatida ko'rib chiqiladi; vazifalarni bajarish ko'nikmalarining hajmi; shaxsiy fazilatlar va xususiyatlarning o'zaro uyg'un birikmasi (kombinatsiyasi); bilim va kasbiyahamiyatgaega shaxsiy fazilatlar majmui; kasbiylashtirish vektori; nazariy va amaliy mehnatga tayyorlikning birligi; murakkab madaniy harakat turlarini amalga oshirish qobiliyati va boshqalar .

Hozirgi kunda psixologik pedagogikada N.V.Kuzmina va uning maktabi, A.K.Markova, L.M.Mitina va boshqalar o'qituvchi shaxsining subyektiv xususiyatlari muammosi, uning kasbiy faoliyati samaradorligini (mahsuldorligini) aniqlash maxsus nazariy va tajribaviy o'rganish predmetigaaylandi. Bu bizga kasbiy kompetentli o'qituvchining subektiv xususiyatlari tarkibiy tuzilishining umumiy taqdim etishga imkon beradi.

N.V.Kuzminaning fikriga ko'ra subyektiv omillar tarkibiga quyidagilar kiradi: 1) yo'nalganlik turi; 2) qobiliyat darajasi; 3) o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladigan kompetentlik: kasbiy va pedagogik kompetensiya, ijtimoiy-psixologik, metodik, psixologik, avtopsixologik kompetentlik . Ushbu omil tarkibiy qismining uchtaasosiy komponenti yaqqol ko'rinib turibdi: shaxsiy, individual va kasbiy bilim, ko'nikmalar, shuningdek, kasbiy kompetensiyaya'ni, fan asosida va o'z-o'zini rivojlantirish darajasi asosidaaniqlanadi. Taklif etilayotgan kompetensiyani tabaqalashtirish asnosida metodik kompetensiya kabi muhim shakllarni ajratish, turli xil o'qitish metodlarini egallash, didaktik metodlar, uslublarni bilish va ularni o'quv jarayonida qo'llash ko'nikmalarini o'zlashtirishning psixologik mexanizmlarini bilish muhimdir.

Kasbiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri – metodik kompetensiya hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda olimlar tomonidan ushbu tushuncha quyidagicha talqin qilingan:

- pedagogning o'qitishning turli metodlari, didaktik metodlar, uslublar sohasidagi bilimi, o'quv jarayonida ularni qo'llash malakasi, bu jarayonda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishning psixologik mexanizmlarini bilishi [50, 28-54 b];

- o'qituvchi shaxsining integrativ, ko'p bosqichli, kasbiyahamiyatli tavsifi,

o‘qituvchilik kasbiga, bilim va ko‘nikmalarni egallashgayagonayondoshuv ifodasi ;

- o‘qituvchining ishbilarmonlik, shaxsiy vaaxloqiy fazilatlarining ajralmas xususiyati, metodik faoliyatning tizimli darajasini aks ettirishi; metodologik va metodik bilim, ko‘nikma, tajriba, motivatsiya, qobiliyat va umuman metodik va pedagogik faoliyatda ijodiy o‘zini yaxlit namoyon qilishga tayyorlik.

L.N.Orlova o‘qituvchi shaxsida rivojlantirish lozim bo‘lgan muhim integral xususiyatlar sifatida pedagogik yo‘naltirganlik, pedagogik kompetentlik, hissiy moslashuvchanlikni ta’kidlaydi.

F.B.Kevbrinning fikriga ko‘ra, moyilliklar, motivlar, maqsadlar, ma’nolarning nisbati insonning ma’lum bir kasbiyyo‘nalishini - kasbni egallash, maxsus tayyorgarlik ko‘rish, muvaffaqiyatgaerishish, ma’lum bir ijtimoiy maqomgaega bo‘lish va boshqalarga imkon yaratadi .

Tanlagan kasbini egallashda subyektning motivatsiyasiz yo‘naltirilganligi agar o‘qituvchi yetarlicha rivojlangan intellekt va ijodiy faoliyat yuritish qobiliyatigaega bo‘lsa ham, kasbiy tayyorgarlikning samaradorligi past bo‘ladi.

B.Xodjayev, M.Vahobovlar o‘z izlanishlarida kompetensiyaviy yondashuv – bu ta’limiy natijalargaerishishgayo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, unda natija sifatida o‘zlashtirilgan ma’lumotlar miqdori emas, balki insonning turli murakkab vaziyatlarda samarali harakatlana olish qobiliyati muhim o‘rin tutadi – deya ta’kidlaydilar. Ushbu vaziyatlar turi (to‘plami) o‘quv muassasasining o‘ziga xosligiga bog‘liqdir.

Kompetensiyaviy yondashuv bizga tahsil oluvchining faoliyat natijalarini yanada to‘liq va oqilona tasavvur qilish imkonini beradi, ya’ni nafaqat ijtimoiy hayotga tayyorlikni, balki zamonaviy texnologiyalar olamida ham, jamiyat hayotida ham dinamik o‘zgarishlar sharoitida ishlash qobiliyatini anglatadi.

Kelajakka yo‘naltirilgan mutaxassis o‘z kasbi sohasidayangi (masalan, raqobatbardosh mahsulotlar) yaratishga tayyor bo‘lishi kerak, shuningdek, o‘zining bilimlar zahirasida tayyor algoritmlar mavjud bo‘lmagan taqdirda ham nostandart vaziyatlarda yaratuvchanlik, ijodiy fikr yuritish asosida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga qodir bo‘lishi kerak. Kompetensiyaviy yondashuvda mutaxassisning semantik-mohiyatli yo‘nalishlarigae’tibor qaratilib, bu unga kasbning ijtimoiyahamiyatini tushunish orqali o‘z salohiyatini to‘liq amalga oshirishga imkon beradi, ya’ni mutaxassis ijtimoiylashuv jarayonining faol ishtirokchisi hisoblanadi.

S.S.Babadjonov pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish sohasida ilmiy izlanish olib borgan . Talabalarda medikompetentlikni rivojlantirish mazmuni takomillashtirilgan, mediakreativlik darajasini kiritish orqali mediaijodkorligi va mediaraqobatliligi qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatlari kengaytirilgan, multimediali axborot-ta’lim resurslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi I.Eshmamatov oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish sohasida izlanish olib borgan. Pedagoglarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari texnologik va interfaol omillariga ustivorlik berish asosidaaniqlashtirilgan, axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish mezonlari, loyihaviy faoliyatning masofaviy shakllarini qo‘llash, pedagoglarning axborot -kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning modelining tarkibiy qismlari takomillashtirilgan, elektron resurs bilan boyitilgan .

Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik kadrlar tayyorlash tizimining muhim yo‘nalishi o‘qituvchilar tayyorlashning psixologik mazmun va shakllarini takomillashtirishdan iborat. O‘qituvchi nafaqat fanga oid vazifalarni hal etishi, kasbiy o‘qitishi, balki bo‘lajak mutaxassislarni intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlantirish texnologiyalarini egallashi, muvofiq kompetensiyalarni egallashga tayyorlashi

lozim. O‘quv jarayonida o‘qitishning faol shakllari: psixologik treninglar, ishchan va rolli o‘yinlar, laboratoriyaamaliyotlarini va boshqalarni qo‘llash zarur.

Biz o‘z tadqiqotlarimizda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish maqsadidan kelib chiqqan holda, bu borada adabiyotlar tahliliga murojaat qildik.

A.G.Matvapayevning “Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari” mavzusidagi tadqiqot ishida

Kasbiy kompetentlik – jismoniy tarbiya va sportning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jihatidir. Shuning uchun ham bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari pedagogik amaliyot jarayonida barcha kasbdoshlari orasida namunali xulqi bilan ajralib turishlari kerak hamda ular oliy ta’lim jarayonida bunday sifatlarning metodologik asoslarini mukammal egallagan bo‘lishlari zarur.

D.B.Yaqubovaning Bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning kompetentligini takomillashtirish (mustaqil ta’lim jarayonida)

Mustaqil ish bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash va ta’lim sifatini oshirishda alohida o‘rin tutadigan jarayon bo‘lib, bu talabalarga ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish va intellektual qobilyatlarini rivojlantirish imkonini beradi Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda katta rol o‘ynaydi, chunki mutaxassislar talabalarni yangi bilimlarga ega bo‘lish, har qanday nostandart vaziyatlarda o‘z yechimlarini topishga o‘rgatadi.

Sh.A.Qayumovning “Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish” mavzusida tadqiqotida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi – kelajakda umumiy o‘rta ta’lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan, o‘quv jarayoniga rahbarlik qiladigan pedagog mutaxassis.

Kasbiy kompetentlik - kishining kasbiy faoliyat bilan bog‘liq vazifalarni bajara olish qobiliyati va undan samarali foydalana olish imkoniyati bo‘lib, u shaxsga xos ko‘plab psixologik xususiyatlarga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Sh.S.Boboyorovning “Malaka oshirish tizimida o‘qituvchilarning o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetentligini takomillashtirish”

Malaka oshirish – bu mutaxassis-xodimning yanada murakkabroq mehnat funksiyalarni bajarishga tayyorligining shakllanishiga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati bo‘lib hisoblanadi. Ayrim tadqiqotlarda malaka oshirish psixologik nuqtai-nazardan ko‘rib chiqilgan.

Malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish jarayoni pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik jarayonlarni tashkil etishi va boshqarishi, fan yutuqlaridan xabardor bo‘lishi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘zlashtirishi, ta’limni insonparvarlashtirishi va demokratlashtirishi, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltira olishi, ta’limni milliy yo‘naltirilganligini ta’minlashga asoslangan innovatsion faoliyatga tayyorlash bilan belgilanadi.

Sh.X.Abdullayevaning “Pedagog professional kompetentliligini shakllantirishning ijtimoiy psixologik mexanizmlari”

muallif tomonidan ishlab chiqilgan pedagog professional kompetentligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash bo‘yicha ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma (IPS) natijalari tahlil qilingan.

IPSdagi “Kasbingizga munosabatingiz” savoliga turli yoshdagi respondentlar tomonidan berilgan javob variantlariga ko‘ra, “o‘zim qiziqib tanlaganman” javobini tanlash tendensiyasi yosh pedagog mutaxassislarga nisbatan yoshi katta o‘qituvchilarda yuqoriroq, “tasodifan tanlaganman” javobini katta yoshdagi o‘qituvchilar deyarli umuman tanlashmagan.

J.A.Qosimovning “Tinglovchilarning kasbiy kompetentligini zamonaviy grafik dasturlar asosida takomillashtirish (gidrotexnika qurilishi ta’lim yo‘nalishi misol-

ida)"

Tinglovchilarning kasbiy kompetentligini zamonaviy grafik dasturlar asosida takomillashtirishdagi muhim omillar quydagilardan iborat: Kompetentlilik – talabaning tegishli kompetensiyalarga ega bo'lishi. Kompetentlilik – talabada tarkib topgan shaxsiy sifatlar va berilgan sohadagi faoliyati bo'yicha to'plagan minimal tajribasi bilan belgilanadi

Kasbiy kompetentsiyalar – muayyan kasb, ixtisoslik, mutaxassislikni shakllantirishga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuidan iborat. Bu kompetentsiyalarga ega bo'lish uchun muayyan kasb bo'yicha aniq bilim zarur bo'ladi va bu ko'nikmalarning mavjudligi sinov yoki amaliy ishni bajarishi orqali aniqlanadi. Yuqorida olimlarning fikrlarini tahlil qilish asosida tinglovchilarning kasbiy kompetentliligi tushunchasiga muallif o'z tarifini keltirdi.

G.R.Tojiboevaning "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish"

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun quyidagi pedagogik-psixologik shartlar bajarildi:

1) shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali tinglovchilarning kasbiy kompetentligining darajalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim — tarbiya mazmuni integratsiyasini ta'minlandi;

2) o'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan mustaqil va iijodiy faoliyat muhiti tashkil etildi: pedagogik amaliyot, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, mustaqil loyihalarni amalga oshirish, tinglovchilar tomonidan turli tadbirlarni tashkil etish;

3) pedagogik ta'lim innovatsion klasteri (PTIK)ga asoslanib tayanch maktablar negizida pedagogik hamkorlik tashkil etildi.

A.N.Ubaydulloyevning "Raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida tinglovchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish"

Kompetensiya bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarda mavjudligini anglatsa, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi.

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan jarayondir. U quyidagi ketma-ketliklarga bo'lingan:

maxsus ma'lumot olish;

amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish;

kasbiy tajribaga ega bo'lish;

malaka oshirish, maxsus kurs va treninglardan o'tish;

o'z sohasida professionalikka erishish;

tajriba to'plash, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash bilan pedagogning kompetentligi yaxshilanadi.

Talabaning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. O'z ustida ishlash – talaba yoki mutaxassis tomonidan o'zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo'lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni/ "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi".09.10.2019y.,06/19/5847.

2. Коспоченко В.Ф. Концепция специального профессионального образования в вузах физического культуры в современных условиях: Авто- реф. дис. ... докт. пед. наук. - СПбГАФК, 1997. 40-с.

3. Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Монография. - Т.: Фан ва технология нашриёти, 2013. 15-b.

4. Toshtemirova, S. Chirchik experience in education. Academic research in Educational Sciences 1 (3), 2020. p. 445.

5. Хамидов Ж.А. Бўлажак касб таълими ўкитувчиларини тайёрлашда ўқитишнинг замонавий дидактик воситаларини яратиш ва қўллаш технологияси: Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. - Тошкент: 2017.

Юлдашева Наргиза Эгамбердиевна
Специалисты по физическому воспитанию и спорту
Ферганский филиал института переподготовки и повышения квалификации, преподаватель
E-mail: nargizayuldasheva1972@gmail.com

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье рассматривается профессиональная компетентность учителя физической культуры в постоянно меняющихся условиях, на основе изучения передового зарубежного опыта, освещены особенности, редакционные условия, содержание и структура его профессиональной компетентности в системе повышения квалификации. Также определены критерии совершенствования методики идентификации и уровней сформированности, развития технологии, дидактических основ, формы, метода, инструментария, модели, повышения эффективности качества преподавания, а также теоретико-теоретического развития профессиональной компетентности учителей физического воспитания в система повышения квалификации, основанная на интегративном подходе. Подчеркнута важность практических основ.

Ключевые слова: Физическое воспитание, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональные способности, личностные качества, субъективные факторы.

Yuldasheva Nargiza Egamberdiyevna
Specialists in physical education and sports
Fergana branch of retraining and professional development institute, teacher
E-mail: nargizayuldasheva1972@gmail.com

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Annotation. In this article illustrates the professional competence of the physical education teacher in the constantly changing conditions, having studied advanced foreign experiences, the specific aspects, editorial conditions, content and structure of their professional competence in the system of professional development are highlighted. Also, the criteria for improving the identification methodology and levels of formation, technology, development of didactic foundations, form, method, models, increasing the effectiveness of teaching quality and the theoretical and practical foundations of developing the professional competency of physical education teachers in the system of professional development based on an integrative approach importance are highlighted.

Key words: Physical education, competence, professional competence, professional ability, personal qualities, subjective factors.